



«XOTIN QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR»

Djapparov Flyur Fatxullaevich

Malaka oshirish instituti jismoniy tayyorgarlik
sikli o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21023444>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 27-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 29-iyun 2026 yil

KEYWORDS

*oilada zo'ravonlik, qurbonlar,
himoja mexanizmlari, huquqiy
tizim, ijtimoiy xizmatlar, davlat
siyosati.*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada oilada zo'ravonlik qurbonlarini
himoja qilish mexanizmlari tahlil qilinadi.
O'zbekistondagi huquqiy, ijtimoiy va psixologiya
sohalaridagi mavjud muammolar va ularning echimlari
ko'rib chiqiladi. Davlat va jamiyat darajasida oilaviy
zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha amalga
oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularning samaradorligi
baholanadi.*

O'zbekistonda bu muammoga jiddiy e'tibor qaratilib, so'nggi yillarda oilada zo'ravonlikka qarshi kurashish maqsadida bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, "Xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoja qilish to'g'risida"gi qonun, "Gender tenglik" to'g'risidagi qonun, hamda davlat organlari va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, ushbu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, qator muammolar hali ham echimini topmagan. Jamiyatda zo'ravonlikni "shaxsiy ish" deb baholash, qurbonlarning huquqiy va psixologik himoyaga bo'lgan cheklangan imkoniyatlari, zo'ravonlarga nisbatan jazo choralarining samarasizligi kabi omillar mavjud holatni yanada og'irlashtirmoqda. Ayrim hollarda jabrlanuvchilar o'z holatini yashirishga majbur bo'ladi, chunki ularda huquqiy yordamga ishonchi past, yoki jamiyatning salbiy munosabatidan qo'rqishadi.

Shu nuqtai nazardan, oilada zo'ravonlikka qarshi kurashish nafaqat huquqiy yondoshuv, balki keng qamrovli ijtimoiy, ma'naviy va psixologik strategiyalarni talab qiladi. Bu masalada davlat, fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va albatta, har bir fuqaroning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Oilada zo'ravonlik — ko'p omilli, kompleks ijtimoiy-ruhiy muammo bo'lib, uning kelib chiqishiga turli ildiz sabablar sababchi bo'ladi. Ularni shartli ravishda quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

- Ijtimoiy-iqtisodiy omillar

• Ishsizlik va kambag'allik: Moddiy qiyinchiliklar, turmush sharoitidagi toqatsizlik ko'p hollarda zo'ravonlikni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud bo'lgan oilalarda zo'ravonlik xavfi ikki barobar yuqori.

- Ijtimoiy tengsizlik: Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi yo'qligi, ularning moliyaviy resurslarga bog'liqligi zo'ravonni jazolash yoki oilani tark etish imkoniyatini cheklaydi.

- Ma'naviy-axloqiy omillar

- Gender stereotiplari: Jamiyatda "erkak hukmron", "ayol itoatkor" kabi qarashlar hanuzgacha kuchli bo'lib, zo'ravonlikka shar'iy yoki "odatiy holat" deb qaraladi. Bu esa qurbonni o'z muammosi bilan yolg'iz qoldiradi.

- Oilaviy an'analar va tarbiya: Bolalikda zo'ravonlikka guvoh bo'lgan insonlar katta bo'lganda ham o'sha xatti-harakatlarni takrorlashga moyil bo'ladilar.

- Psixologik va shaxsiy omillar

- Psixik muammolar: Agressiv, nazoratni yo'qotuvchi shaxslar, alkohol va narkotik moddalar ta'sirida zo'ravonlik sodir etishi ko'p uchraydi.

- Emotsional saviyaning pastligi: Munozara va mojarolarni madaniyatli hal qilish ko'nikmasining yo'qligi zo'ravonlikka yo'l ochadi.

Zo'ravonlikning qurbon uchun keltirgan zarari faqatgina jismoniy jarohatlar bilan cheklanib qolmaydi. Uning oqibatlari ko'p qirrali bo'lib, har tomonlama hayot sifatiga ta'sir qiladi:

- Psixologik oqibatlar

- Uzoq muddatli stress, depressiya, o'ziga ishonchsizlik, o'z joniga qasd qilish holatlari zo'ravonlikka uchragan shaxslarda tez-tez kuzatiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ)ning ma'lumotlariga ko'ra, har to'rtinchi ayol zo'ravonlikdan keyin depressiyaga uchraydi.

- Ijtimoiy oqibatlar

- Jabrlanuvchilar jamiyatdan chetlashadi, ish joyini yoki ta'lim muassasasini tark etadi. Bolalar oldidagi obro' va maqomi pasayadi, ularning faolligi so'nib boradi. Ayniqsa bolalarga ta'siri juda jiddiy bo'lib, keyinchalik ularning xulq-atvorini ham buzadi.

- **Iqtisodiy oqibatlar**

- Oilada zo'ravonlik iqtisodiy tanazzulga olib keladi. Davlat uchun bu sohadagi oqibatlar — tibbiy, huquqiy, ijtimoiy xizmatlar xarajatlari orqali ko'p million so'mlik zarar keltiradi. Xalqaro hisob-kitoblarga ko'ra, ba'zi mamlakatlarda zo'ravonlik bilan bog'liq xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 1.5–3% ni tashkil etadi.

Qisqa qilib aytganda, oilaviy zo'ravonlik qurbonlari ko'p hollarda o'z muammosini oshkor qilishdan va yordam so'rashdan tiyiladilar. Bu holat nafaqat qurbonni, balki jamiyatni ham zaiflashtiradi. Zo'ravonlikka qarshi kurashda faqat jinoiy jazo etarli emas — ildiz omillarni bartaraf etish, jamiyatni ma'rifatlashtirish, psixologik yordam tizimini rivojlantirish zarur.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oilada zo'ravonlikni bartaraf etish bo'yicha jiddiy huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosati bu sohada faqat jazo berish emas, balki profilaktika, qurbonlarni himoya qilish va ularni rehabilitatsiya qilish kabi ko'p qirrali yondashuvni nazarda tutadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik asosida tizimli choralar ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasida oilada zo'ravonlikka qarshi huquqiy himoyani ta'minlash maqsadida quyidagi muhim qonunlar va qarorlar qabul qilingan:

- **2019 yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-561)** — mazkur qonun zo'ravonlikka uchragan ayollarning

huquqlarini himoya qilish, ularni vaqtincha boshpana, huquqiy va psixologik yordam bilan ta'minlash, hamda zo'ravonlarga nisbatan huquqiy choralar ko'rish tartibini belgilaydi.

- **2021 yilda qabul qilingan "Gender tenglikni ta'minlash to'g'risida"gi Qonun** — jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlarni shakllantirishga qaratilgan. Gender diskriminatsiyasi zo'ravonlikka olib keluvchi asosiy omillardan biri ekani uchun bu qonun o'ta muhim ahamiyatga ega.

- **Ma'muriy va jinoiy javobgarlik kodekslariga kiritilgan o'zgartishlar** — zo'ravonlik holatlarini faqat "oilaviy nizo" emas, balki huquqbuzarlik sifatida baholash amaliyotini mustahkamlaydi. Masalan, sud qarori bilan zo'ravonga muayyan muddat qurbonga yaqinlashish taqiqlanishi mumkin.

O'zbekistonda zo'ravonlikka qarshi kurashishda quyidagi davlat organlari markaziy o'rin tutadi. Xotin-qizlar ishlari bo'yicha qo'mita, joylarda ayollar bilan ishlash tizimini tashkil etib, zo'ravonlik qurbonlariga yordam beradi, Ichki ishlar organlari (IIV) — zo'ravonlik holatlari yuzasidan shoshilinch aralashuvni amalga oshiradi. Ayniqsa, "himoya orderi" kabi mexanizmlar amalga joriy etilgan, "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" — ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarni aniqlash va ular bilan profilaktik ishlarni olib borishga xizmat qiladi.

Qurbonlarga yordam ko'rsatishda faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy-psixologik yordam ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan asosiy tadbirlar, Ya'ni **mahalla faollari va psixologlar**, joylarda profilaktik suhbatlar olib borish, mojarolarni bartaraf etishda faol ishtirok etishi, **ishonch telefonlari va onlayn maslahat platformalari** zo'ravonlik qurbonlari uchun anonim va tezkor yordam mexanizmini ta'minlashi, davlat va NNTlar hamkorligida olib borilayotgan ma'rifiy ishlar jamiyatda oilaviy zo'ravonlikni kamaytirishda katta ahamiyatga ega. **OAV orqali targ'ibot** qilish, ya'ni televidenie, radio va internetda zo'ravonlikka qarshi ko'rsatuvlar, roliklar orqali jamoatchilik ongini shakllantirish, **ta'lim muassasalarida ta'lim va treninglar o'tkazish**, ya'ni bolalar, o'quvchilar va talabalar o'rtasida gender tenglik, muomala madaniyati va zo'ravonlikni oldini olish mavzularida darslar tashkil etiladi.

Xulosa o'rnida:

Oilada zo'ravonlik — jamiyatdagi eng dolzarb, ko'p qirrali va keng tarqalgan ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammo nafaqat jismoniy yoki psixologik ziyon etkazish, balki inson huquqlarini poymol qilish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi ishonchni susaytirish, ma'naviy tanazzul va iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Shu boisdan, uning echimida faqat jazo choralari bilan cheklanib qolmasdan, huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy, psixologik va ta'limiy mexanizmlarni o'zaro uyg'un holda qo'llash talab etiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oilada zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha muhim huquqiy-me'yoriy baza shakllantirildi. "Xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun, "Gender tenglik to'g'risida"gi qonun, hamda ma'muriy va jinoiy kodekslarga kiritilgan tuzatishlar ushbu sohadagi huquqiy bo'shliqni qisman to'ldirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, krizis markazlari, shoshilinch himoya orderlari, ishonch telefonlari, psixologik xizmatlar kabi amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi.

Biroq, amaliy holat tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur choralar hali ham barcha qatlam va hududlarda to'liq ishlamayapti. Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar, o'z huquqlarini etarli darajada bilmaydilar. Jamiyatdagi "uy ishi — ichkarda qoladi" kabi stereotiplar zo'ravonlikni yashirin va e'tirof etilmagan holda saqlab turibdi. Mahalla, ta'lim muassasalari, ommaviy

axborot vositalari va diniy arboblardan tomonidan profilaktik va ma'naviy ishlarning samaradorligi ham barcha hududlarda bir xil emas.

Shu sababli, oilada zo'ravonlikka qarshi kurashishda quyidagi yo'nalishlarda qo'shimcha xuquqiy islohotlarni chuqurlashtirish, zo'ravonlarga nisbatan javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish, qurbonlarni himoya qiluvchi orderlarning huquqiy kuchini oshirish, politsiya va sud xodimlari uchun doimiy o'quv kurslari tashkil etish, ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, mobil psixologik yordam guruhlarini joriy qilish chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Xulosa qilib aytganda, oilada zo'ravonlikka qarshi samarali kurash — bu faqat davlatning emas, balki butun jamiyatning umumiy mas'uliyatidir. Har bir fuqaro, har bir mutaxassis, har bir mahalla — ushbu jarayonda o'z o'rnini va mas'uliyatini his etishi lozim. Faqat shundagina, biz sog'lom, xavfsiz va barqaror oilalar poydevorida ma'naviyatli jamiyatni bunyod etishimiz mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining maqullangan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish" to'g'risidagi qonuni. T.: 2017
2. Abbasxo'jayev O. Umarova N. Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. T.: Akademiya, 2007
3. Do'stmuhammad Xurshid. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. — Toshkent: O'zbekiston, 2005.
4. Qaxxorova SH. Global ma'naviyat- globallashuvning g'oyaviy asosi. T.: Tafakkur, 2009
5. <http://google.uz>

INNOVATIVE
ACADEMY